



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Axundjanova Muxabbat Lazizovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Annotasiya: *Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo‘yish, shuningdek respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsad qilib qo‘yilgan.*

Kalit so‘zlar: *Vakolatlar , organ , konstitutsiya , qonun, fuqaro, hokimiyat , moddalar.*

KIRISH

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo‘yish, shuningdek respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida qo‘llanilayotgan ishlar bo‘yicha tanishib chiqamiz.

ASOSIY QISM

Belgilab qo‘yilsinki, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, qo‘mitalar, agentliklar, shuningdek ular huzurida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi.

Respublika davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat deb hisoblansin:

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amalda ro‘yobga chiqarilishini, ularning ijrosi ustidan ta‘sirchan nazorat amalga oshirilishini ta‘minlash;

tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta‘minlash;

mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, aholining ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umumdavlat boshqaruv tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish;

tegishli huquqiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

solliqlar, bojxona to'lovlarini yig'ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo'li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 20-iyundagi F-1791-son farmoyishi bilan tuzilgan ma'muriy islohotni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni boshqarish tuzilmasini takomillashtirishga oid takliflarni tayyorlash bo'yicha Respublika komissiyasining quyidagi takliflari qabul qilinsin:

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazi etib qayta tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat moddiy zaxiralari bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasi etib qayta tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi etib qayta tashkil qilish;

Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligini Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi etib qayta tashkil qilish;

Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligini Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ("Sanoatkontexnazorat") etib qayta tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo'mitasini tugatish.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Respublika davlat boshqaruvi organlarining ro'yxati ilovaga muvofiq belgilansin.

Ilovada ko'rsatilgan respublika davlat boshqaruvi organlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda jamiyatni erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq yangilangan o'z nizomlarini hamda boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun taqdim etsinlar.

Ma'muriy islohotni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni boshqarish tuzilmasini takomillashtirishga oid takliflarni tayyorlash bo'yicha Respublika komissiyasi bosqichma-bosqich ikki oy muddatda ushbu Farmonga muvofiq qayta tashkil etiladigan davlat boshqaruv organlarining tashkiliy tuzilmalari va funksiyalari to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqsin hamda tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunchilikka mazkur Farmondan kelib chiqadigan qo'shimcha va o'zgartirishlar tayyorlanishi hamda belgilangan tartibda kiritilishini ta'minlasin.

Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'. T. Sultonov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi T. A. Xudoybergenov zimmlariga yuklatilsin

DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVI ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 11-martda qabul qilingan

Senat tomonidan 2014-yil 10-aprelda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va asosiy vazifalari

Ushbu Qonunning maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jismoniy va yuridik shaxslarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanishini ta'minlash;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olish huquqining kafolatlarini ta'minlash;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlar uchun mas'uliyatini oshirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni tarqatish tartibini belgilash.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

2-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilik.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

7-modda. Axborotdan foydalanuvchi va uning huquqlari

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot izlashni amalga oshirayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs axborotdan foydalanuvchidir.

Axborotdan foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotni olish va tarqatish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida ushbu Qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan axborotni olish uchun bevosita yoxud o'z vakillari orqali so'rov bilan murojaat etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishni rad etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrda PF-3358-son Farmoniga ILOVA

2.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 19-son, 209-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.08.2019-y., 03/19/559/3670-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

3.7-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

4.Mirziyoyev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 C.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

5. Ismailov B.I. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy jihatlari // O'quv qo'llanma.-Toshkent: YUMOM. 2015.-129 b.

6. Xolmanova D. Fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishtirokining huquqiy asoslari. // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. 2017. №2 B.75-77

7. <https://lex.uz/docs>

8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>